


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”  
O‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektor  
 S. Normamatov  
2021-yil “26” avgust

**O‘zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)  
ta‘lim yo‘nalishi talabalarining  
pedagogik amaliyoti dasturi  
(4-kurslar uchun)**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha  
Ta‘lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar  
Ta‘lim yo‘nalishi: 5120900 – O‘zbek-ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti  
Amaliyot davomiyligi – 8 hafta

**Toshkent – 2021**

**Kafedralar:** Madaniyatlararo muloqot va turizm

**Tuzuvchilar:**

**N.Khodjakulova** Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
"Madaniyatlararo muloqot va turizm" kafedrasida katta o'qituvchisi.

**Z.S.Kertayeva** Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
"Madaniyatlararo muloqot va turizm" kafedrasida o'qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**M.R.Galiyeva** O'zbekiston davlat Jahon Tillari Universiteti Lingvistika va ingliz  
tili adabiyoti kafedrasida mudiri

Amaliyot dasturi Madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasining 2021-yil 26-  
avgustdagi 1-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida  
muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:  N. Normurodova

Amaliyot dasturi O'zbek filologiyasi fakultet kengashida muhokama etilgan va  
foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 -avgustdagi 1-sonli bayyonnoma).

Fakultet dekani



A. Sayfullayev

## KIRISH

Respublikamizda “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”<sup>1</sup>, shu bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston jahon tajribalarini hisobga olgan holda o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilab, shu yo‘ldan og‘ishmay ilgarilayotgan bir davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan ta’lim va tarbiyada ham shunday yo‘l tutililishi kerakligi tabiiy. Ana shu islohotlar silsilasida ta’lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni, ular orasidagi aloqa va bog‘lanishlarni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vazifani amalga oshirishni ta’minlash ko‘p jihatdan pedagogik amaliyotga ham bog‘liqdir. Mazkur pedagogik amaliyot dasturi bevosita ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **1.1 . Talabalar pedagogik amaliyotining maqsadi va vazifalari**

Pedagogik amaliyotda talabalar ingliz tili hamda boshqa fanlardan olgan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, amalga tatbiq qiladilar. Shuning uchun ham pedagogik amaliyot o‘zining ilmiy-tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalariga ega.

Pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish, o‘quvchining ta’lim jarayonining subyektiga aylantirish, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bilishning qulay yo‘llarini aniqlash, ingliz tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish amaliyotning ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida fan tarixi, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘qitishning maqsadi, metod va tamoyillarini bilishlari zarur. Bundan tashqari til va adabiyot nazariyasini amaliyot asosida o‘rganish, har bir darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida olib borish hamda fanlararo aloqani bilishlari maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik amaliyot umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda akademik litseylar bilan oliy ta’lim tizimining hamkorligini kuchaytiradi. Bu davrda talabalar universitet auditoriyalarida olgan nazariy bilimlarga, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida egallagan ko‘nikma va malakalariga tayanib mustaqil faoliyat olib boradilar; yuqori malakali metodist o‘qituvchilarning ish faoliyati bilan tanishadilar, ulardan o‘rganadilar, turli ruhiyat egalari – o‘quvchilar bilan hamkorlikda o‘quv-tarbiya ishlarini olib boradilar.

O‘qituvchilik kasbini egallashga intilgan har bir talaba 1 kursdan boshlab mutaxassislik faoliyati ustida ishlashi, bilim maskanida yaratilgan imkoniyatlardan to‘la foydalanib, nazariy bilimlarni puxta va chuqur egallab bormog‘i shart.

Talabalarning pedagogik amaliyoti mazkur vazifalarni o‘z ichiga oladi:

---

<sup>1</sup> Харакатлар стратегияси асосида жадал тараккиёт ва янгиланиш сари // –Т.: F.Фулум, 2017. 70 б.

1. O'z mutaxassisligi bo'yicha universitetda olgan nazariy bilimni amaliy ish bilan mustahkamlash.
2. Yuqori malakali, ko'p yillik ish tajribasiga ega o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish. O'z mutaxassisligidan dars olib borish malakasini egallash.
3. O'quv yurti hayoti, uning o'quv-metodik yo'nalishi, o'quv-tarbiya jarayoni bilan tanishish, o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashish, mustaqil ish yuritish malakasini hosil qilish.
4. Ingliz tili fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni o'rganish va tashkil etishda qatnashish.
5. O'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari individual ishlash usullarini o'rganish. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga hissa qo'shish.
6. O'quv yurtida o'z mutaxassislik fani yuzasidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ustida fikr yuritish mavzu tanlash, material to'plash, ayrim sinov-tajriba ishlarni olib borish, tajribali uslubchi o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish.
7. Amaliyot davomida sinf rahbarlari ish uslubini o'rganish, o'quv muassasasi tarbiyaviy ish rejasiga mos tadbirlar tashkil etib, o'tkazishga rahbarlik qilish. O'quv yurti miqyosida o'tadigan tadbirlarda faol qatnashish.
8. Ingliz tili o'quv xonasini jihozlashga, ko'rgazmali qurollar, metodik qo'llanmalar bilan boyitishga yaqindan yordam berish.

## **1.2. Pedagogik amaliyot bo'yicha talabalar bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar:**

- ❖ til bo'limlarini (fonetika, so'z yasalishi, leksikologiya, grammatika, orfografiya, orfoepiya, punktuasiyalarni semantika va uslubiyat bilan uyg'unlikda tahlil qilish;
- ❖ ingliz tili fanidan o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim va kompetensiyalarni zamonaviy va samarali metodlar bilan yetkazib berish;
- ❖ umumiy o'rta ta'lim maktab va akademik litsey o'quvchilariga ingliz tilidan bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni tushunish;
- ❖ amaliyot davomida ingliz tili darslari orqali o'quvchilarning ingliz madaniyatidan xabardorligini oshirish va ularning dastlabki madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantira bilish
- ❖ ingliz tili fanini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, fikrlash mahsulini og'zaki va yozma yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, malaka hosil qilish yo'llarini bilishlari;
- ❖ so'zning ichki (lug'aviy) ma'nolarini, ma'no darajalarini, so'zni to'g'ri tanlash va nutqda o'z o'rnida qo'llash sirlarini anglab yetishi, uning ilmiy-grammatik talqinini bilib olishlariga erishish va amalda qo'llashlari;
- ❖ dars jarayonida qo'shimcha adabiyotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana bilishlari;
- ❖ o'quvchilarning til ko'nikmalarini to'g'ri baholay olish va bunda baholash mezonlari rioya qilish, zamonaviy metodlarni sinab ko'rish va o'quvchilar yutuq va xatolarini eng munosib usulda bayon eta olish

IV kursda talabalar uzluksiz pedagogik amaliyotni o'taydilar. O'quv yurti: maktab va akademik litsey pedagogik jamoasi faoliyati bilan tanishadilar; ish rejaları tuzib, kundalik daftar yuritish, dars kuzatish, haftalik, choraklik o'quv rejalaridan foydalanish malakasini hosil qiladilar. Darsning reja-konspektini tayyorlab, uni tashkil etish va o'tkazishga oid mashq darslarini boshlaydilar. Metod birlashma ishi bilan tanishadilar, birlashma yig'ilishlarida ishtirok etadilar, sinfdan tashqari ishlarni olib borish tajribalarini o'rganadilar, tadbirlar tashkil etib o'tkazishda qatnashadilar.

### **1.3. Talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyoti**

Talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyoti pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq, tilshunoslikka kirish, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, adabiyot tarixi, nutq madaniyati, til tarixi, tarix, geografiya, fizika fanlari bilan aloqadorligi mavjud. Pedagogik amaliyotning boshqa fanlar bilan aloqasi dars jarayonida o'quvchilar bilimini, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

### **1.4. Uzluksiz pedagogik amaliyotga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish**

ingliz tili fanini o'qitishning faol metod va shakllari o'z ichiga muammolilik, ilmiy izlanish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish kabilarni oladi. Yuqorida qayd qilingan metod va usullar amaliyotda keng qo'llanadi.

### **1.5. Bitiruvchi kurs talabalarining pedagogik amaliyot dasturi**

- O'qituvchilarning pedagogik kengashlarida, metodik kengashlarida ishtirok etish.
- Pedagogik amaliyotni tashkil etishga oid amaliy konferensiyalar tashkil etish. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, tashkil etish yo'llari, olib borish uslubi haqida suhbatlashish.
- Talabalar biriktirilgan maktab va ALLarda pedagogik amaliyotni boshlash oldidan umumiy maqsad va vazifalarni belgilash.
- O'quv yurti hayoti, pedagogik jamoa faoliyati, ta'lim muassasasini boshqarishning zamonaviy talablariga oid direktor suhbatini tashkil etish va o'tkazish.
- O'quv yurtining o'quv tarbiyaviy ishlari holati bilan tanishuv, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari bilan suhbatini tashkil etish.
- O'quv yurtida joriy yilda o'tkazish rejalashtirilgan ma'naviy ma'rifiy ishlar bilan tanishish.
- Fan o'qituvchilarining yillik va choraklik o'quv rejaları bilan tanishish.
- Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi bilan tanishtirish.
- ingliz tili fani metod kengashi bilan tanishish. o'qituvchilarning ish yuritish hujjatlari, sinf jurnalini yuritish bilan tanishtirish. Talabalarni sinflarga taqsimlash ingliz tili fani darslarini o'tkazish jadvalini tuzish. Amaliyotchi talabalar bilan fan o'qituvchilarining darslarini kuzatish. Amaliyotchi burchagini tashkil etish.

- I - III kurs o'quv rejasiga ko'ra talabalarning mustaqil darslarini tashkil etishga rahbarlik. Darslarni kuzatish va tahlil qilish. Metodist o'qituvchi va fan o'qituvchilarining ochiq darslarini o'tkazish, darslarni kuzatish, tahlil qilish va baholash.

- "Zamonaviy dars qanday bo'lmog'i kerak?", "Ta'limdagi an'anaviy va noan'anaviy usullar" mavzularida suhbat o'tkazish.

- Darsning reja va konspektini tuzish. Dars uslubini belgilash. Ta'lim metodlaridan foydalanish yo'llarini o'rgatish. Darsni jihozlash, darsda ko'rgazmalilik, va texnik vositalardan foydalanish, tarqatmalar, didaktik vositalar tayyorlash, ulardan foydalanish. O'quvchilarnig mustaqil va yozma ishlarini tashkil etish va baholash. Baho me'yorlari. O'quvchi daftarini nazorat qilish. O'quv predmeti materiallaridan foydalanish. Dastur va darsliklar ustida ishlash. Dars tiplari va tuzilishiga oid suhbat.

- Sinfidan tashqari ishlar bilan tanishish. Turli bayramlarga bag'ishlangan kechalar tashkil qilish.

- Talabalarning ingliz tili fanidan mustaqil holda tashkil etgan darslarini kuzatish, tahlil qilish, baholash.

- Ota-onalar majlisini tashkil etish, tabel yuritish.

- Talabalarning pedagogik amaliyot davomidagi ish qog'ozlari namunalari tashkil etish va kafedrada namoyish etish.

- Hisobot hujjatlari (dars konspektlari, amaliyot davomidagi ishlarining hisobot tahlili, amaliyotchiga ma'muriyat, o'qituvchilar tomonidan berilgan tavsifnomani tayyorlash va boshqalar).

- O'quv yurti jamoasi bilan birgalikda pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjuman o'tkazish. Pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan hisobotni tayyorlash.

#### Amaliyot muddati 8 hafta

№	Ishning mazmuni	Mas'ul shaxs	muddati
1	Fakultetda pedagogik amaliyotga bag'ishlangan ilmiy-metodik konferensiya o'tkazish	Pedagogik amaliyot boshlig'i, dekanat, o'qituvchilar	Jadval asosida
2	Guruh talabalari bilan metodistlar suhbat	Kaf.o'qituvchilari	Jadval asosida
3	O'quv yurti bilan talabalarni tanishtirish	O'qituvchi o'quv yurti rahbari	Jadval asosida
4	O'quv yurti rahbarlari bilan suhbat (Ushbu ilm dargohining qisqacha tarixi bilan tanishtirish)	O'quv yurti rahbari va o'qituvchilari	Jadval asosida

5	Talabalarni ingliz tili fani o'qituvchilarining ish rejaları bilan tanishtirish	Fan o'qituvchilari, talabalar	Jadval asosida
6	Hafta davomida talabalarning o'quv yurtidagi dars kuzatishlari. Dars haqidagi fikr-mulohazalar (suhbat)	Talabalar va o'qituvchi	Jadval asosida
7	"Dars tahlili" mavzusida suhbat o'tkazish, dars ishlanmasidan namuna berish	Amaliyot rahbar	Jadval asosida
8	"Birinchi dars" – har bir o'qituvchi ish faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi" mavzusi yuzasidan suhbat	Amaliyot rahbar	Jadval asosida
9	Talabani birinchi darsga nazariy, metodik, pedagogik, ruhiy tomondan tayyorlash	Amaliyot rahbar	Amaliyotning dastlabki hafta
10	Talabalarning darslarini kuzatib borish va o'z vaqtida tahlil qilish	O'qituvchilar	Amaliyot davomida
11	"Majlis bayoni – qaror yozish usuli" yuzasidan suhbat	Amaliyot o'qituvchi	Amaliyotning dastlabki haftasi
12	O'quv yurtida o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etish va taassurotlarni kundalikka yozib borish	Talabalar	Amaliyot davomida
13	Talabalarning guruh rahbarlari bilan tuzgan tarbiyaviy ish rejalariga muvofiq tadbirlar tashkil etiladi.	Talabalar	Amaliyot davomida
14	O'quv muassasasining turli tadbirlarida qatnashish	Talabalar	Amaliyot davomida
15	Pedagogik amaliyotni yakunlash uchun o'quv yurtidagi hisobot yig'ilishi	O'quv yurti ma'muriyati, talabalar, o'qituvchi va o'quvchilar	Amaliyot-ning so'nggi kuni
16	Fakultetda pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan ilmiy-metodik konferensiya o'tkazish	Pedagogik amaliyot boshlig'i, dekanat, o'qituvchilar	2021-yil yanvar

**Pedagogik amaliyot davrida talabalar quyidagi baholash mezonlari asosida  
baholanadilar:  
Ingliz tilini o'qitish metodikasi – 100 ball**

Hafta	Bajariladigan ishlar	Ball
<b>(1-hafta)</b>	<p>Pedagogik amaliyotiga bag'ishlangan konferensiyada ishtirok etish. Ingliz tili o'qituvchilari va ularning ish rejasi bilan tanishish, amaliyot o'tashi kuzatilayotgan guruhlar bilan tanishib ular bilan tanishish. O'quvchilarning qiziqishlari va til o'rganish usullari haqida so'rovnoma o'tkazish (Needs analysis and learning styles questionnaire). O'qituvchilar darsini kuzatib, darsdan o'rgangan ko'nikmalari haqida bayon yozish (reflective writing)</p> <p>Ta'lim muassasi rahbariyati, ingliz tili fani o'qituvchilari hamda ingliz tili fani xonasi bilan tanishish. Ta'lim muassasining moddiy-texnik bazasi bilan tanishish.</p> <p>Tarbiyaviy ish rejasini guruh murabbiyi bilan hamkorlikda yozib olish.</p>	<b>10</b>
<b>(2-hafta)</b>	<p>Darslarni o'quv – uslubiy jihatdan tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar bilan tanishish. O'quv tarbiyaviy ishlarni tahlil etishni o'rganish. Dars turlari bilan tanishish. Reja-konspekt tuzish, ko'rgazmali qurollar tayyorlashni o'rganish. Darsning reja-konspektini tuzish, dars tahliliga kirish va dars tahlilida qatnashish.</p> <p>O'qituvchilar uchun yaratilgan metodik qo'llanmalardan foydalanishni o'rganish va ularga o'zgartirish kiritish yoki ular asosida shaxsiy dars rejasini tuzish (Using teacher's book and adapting, designing materials and lesson planning)</p>	<b>10</b>
<b>(3,4,5,6-haftalar)</b>	<p>Dars ishlanmasini tuzish va unda ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi masalalarni yoritish va amalga oshirish. O'quvchilar bilimni nazorat qilish uchun test va so'rovnomalar kartochkalari tuzish. Sinov darslari o'tish.</p> <p>Tuzilgan dars ishlanmalari va rejasi asosida darslar o'tishni boshlash va darsdan so'ng amaliyot haqida bayon yozish (reflective writing).</p> <p>Darslarda raqamli texnologiyalar, online platformalar, ko'rgazmali qurollardan foydalanish.</p> <p>Boshqa amaliyot o'tayotgan talabaning darslarini tahlil qilish va tahlil bayonini yozish (peer observation and feedback).</p> <p>O'quvchilar bilimni baholashda baholash tamoyillaridan va alternativ va innovatsion metodlaridan foydalanish</p> <p>Zamonaviy metodlardan foydalanib darslarni tashkil qilish (TPR (Total Physical Response), PPP (presentation, practice, product), scaffolding va boshqa).</p>	<b>12</b>



<b>(4-hafta)</b>	Dars tahlilida qatnashish, reja-konspekt tuzish, ko'rgazmali qu-rollar va didaktik vositalardan foydalanish. Interfaol usullardan foydalanib darslarni o'tish. Darsdan tashqari ishlar bilan shug'ullanish. Sinov darslari o'tish.	<b>12</b>
<b>(5-hafta)</b>	Didaktik materiallar tayyorlash. O'quvchilar bilimni nazorat qilish uchun test va so'rovnomalar kartochkalari tuzish va ulardan foydalanish. Sinov darslari o'tish. Kutubxonada ishlash.	<b>12</b>
<b>(6-hafta)</b>	Ochiq darslarni o'tkazish, reja-konspekt yozish, fan o'qituvchilarining interfaol usullardan foydalanish darajasini o'rganish. Ingliz tili faniga doir tadbirlar tashkil etib o'tkazishda qatnashish. Sinov darslari o'tish.	<b>16</b>
<b>(7-hafta)</b>	Ochiq dars o'tkazib, o'quv muassasasi vakillari va amaliyot rahbaridan dars tahlili uchun bayon olish (trainer's written feedback). Pedagogik-psixologik bajariladigan ishlarning mazmuni, ularni o'tkazish va nazorat-tahlil qilish. Guruh soatlarini o'tkazish.	<b>16</b>
<b>(8-hafta)</b>	Pedagogik amaliyot yakuni yuzasidan xayrlashuv tadbirini o'tkazish. Pedagogik amaliyotda o'rganilgan bilim va ko'nikmalarini ifoda etuvchi o'gzaki taqdimot bilan amaliyotga bag'ishlangan seminarda ishtirok etish	<b>12</b>
<b>JAMI</b>		<b>100</b>

**1.6. Ingliz tili fanini o'qitish metodikasi bo'yicha talabalar quyidagicha baholanadi:**

Talaba yuqoridagilar asosida baho oladi.

Shundan:

“5” – a'lo

“4” - yahshi

“3” - qoniqarli

“3” - qoniqarsiz

## **Talabalarni pedagogik amaliyot davomida bajargan ishlarini hujjatlashtirish va ularni baholash**

Talabalar pedagogik pedagogik amaliyot davomida kundalik daftar tutadilar va bunga bajaradigan topshiriqlarni yozib qo'yadilar, kundalikning "Bajarilgan ishlarning qisqacha mazmuni va taassurotlar" degan jadvaliga ayrim o'quvchilar yoki guruh jamoasi ustidan o'tkazgan kuzatishlari va taassurotlarini yozib boradilar.

Amaliyot davomida bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot yozishda kundalik daftardan foydalanadilar.

### Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Kuch adolatda, 2016 yil 8 dekabr, № 47.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" gi PF-4797 sonli Farmoni. 2016 yil 13 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori. – Xalq so'zi, 2017-yil, 21-aprel.
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil.
7. To'xliyev B va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). –T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2010. 184 b.
8. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. (o'quv qo'llanma). –T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 168 b.
9. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2015. – 160 b.
10. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 464 b.
11. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi: – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.
12. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari // –T.: G'.G'ulom, 2017. 70 b.
13. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.
14. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
15. Подласы I. P. Педагогика. – М.: VLADOS, 2010.
16. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ziyodova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. –T.: Xalq merosi. 2002.

2. Tolipov O'. va b. O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. –T., 2004.
3. G'ulomov A. Ne'matov H. Ona tili ta'limining mazmuni. –T.: O'qituvchi, 1995.
4. Suyunov H. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash. –T., 2004.
5. Yo'ldoshev I., Mirzarahimova M. Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. – T., 2006.
6. Hasanova B. Pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). –T., 2005.
7. G'ulomov A.Q. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. –T.: O'qituvchi, 1992.
8. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. –T.: Muharrir, 2011.
9. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. –T.: Tamaddun, 2010.
10. Almamatov T., va b. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish (metodik qo'llanma). Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
11. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. –T.: Tafakkur, 2012.
12. Qodirov V.A. Mumtoz adabiyot o'qitish muammolari va yechimlar. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
13. Husanboyeva Q. Literature as a factor for development of morality and independent thinking. – Toshkent: Tamaddun, 2016. – 300 b.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [tdpu-INTRANET.Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)